

**ELEKTRON BAHOLASHNI TA'LIM TIZIMIGA  
TATBIQ ETISHNING AFZALLIKLARI**

***Ikmatillayeva Nilufar Avazjanovna***

*Farg'ona shahar kasb-hunar maktabi maxsus fan o'qituvchisi,*

*Telefon: 91 678 08 20,*

*Elektron pochta: ikmatillaevan@gmail.com*

***Nosirova Dilafruz Akbarovna***

*Farg'ona shahar kasb-hunar maktabi maxsus fan o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada fanlarni o'qitishda va o'quvchilarni baholashda elektron ta'limga zamonaviy usullaridan foydalanish, o'qitish jarayonini samarali tashkil etish, elektron usulda test vazifalarini berish va elektron baholashning testlash modellaridan foydalanish, baholash mezonlarini to'g'ri tashkillash.

**Kalit so'zlar:** elektron ta'limga, o'zlashtirish modeli, pedagogik testlash modeli, o'zlashtirish darajasi, testlash natijalari, pedagogik texnologiyalar, murakkab vazifalar, samaradorlik, baholash mezoni.

Ko'pchilik internetdan faqatgina yangiliklar bilan tanishish, axborot qidirish, elektron pochtadan foydalanish yoki gap sotish uchun foydalanishi hech birimizga sir emas. Internetning imkoniyatlari kundan - kunga oshib bormoqda. Bunga misol qilib: masofadan o'qitish, elektron kutubxonalar, telemeditsina, telemetrologiya, elektron tadbirkorlik, elektron magazinlar va masofaviy ta'limga usullarini sohalarni aytishimiz mumkin.

Masofaviy ta'limga uslubi o'qitishning yangicha zamonaviy shakli bo'lib, u tinglovchi (o'quvchi)ning mustaqil fikrlash, holatni baholash, xulosa qilish qobiliyatlarini rivojlantiradi. Mustaqil bilim olishga, izlanishga, fikrlashga o'rgatadi.

Ma'lumki, elektron ta'limga texnologiyasining rivoji masofaviy o'qitish tizimida ta'limga strategiyasining tuzilishi va har bir o'quvchi uchun o'quv materiallarini yakka tartibda taqdim etish kabi imkonoyatlarini bermoqda. Shunga muvofiq ishlab chiqarishga sarf-harajatlar, doimiy talablarning o'sishi va elektron ta'limga tizimini amalga oshirishda zaruriy baholash va boshqarish sifatlari shakillandi. Hozirgi avtomatlashtirilgan ta'limga tizimi sifatini baholash uslublari o'qish jarayoni natijalari nuqtai nazaridan, o'qitish tizimlarini baholashga, shuningdek, ushbu uslublar umumiy bo'lib, paydo bo'lgan va electron ta'limga tizimi hayot siklining turli bosqichlari sifatini boshqarishga yetarli darajada imkon bermaydi.

Shu sababli ham elektron ta'limga tizimi sifatini baholash mezonlari va usullari o'qitish jarayonini boshqarishni amalga oshirishga imkon beruvchi, joriy etish

va foydalanish bosqichlarini ishlab chiqish zarur. O'qitishning barcha xususiyatlari mujassamlangan ishlanmaning uslubi va o'rganilayotgan fan bo'yicha o'quvchilarning o'zlashtirgan bilimlarini baholashda darajalarga ajratish tizimining ishlashi hamda o'lchov xususiyatlarini aniqlashtirish zarurati yuzaga keladi. O'qitish modeli quyidagi: ta'lim maqsadi haqida; o'quv kursi doirasida o'rganuvchining bilimi haqida (o'quv kursining joriy holati); nazorat savollari va vazifalar tanlovi hamda o'quv materiallariniuzatish asoslari haqida; o'quvchilar bilan ishlash natijalari bo'yicha o'qitish modelining o'zgarishi qoidalari haqida axborotlarni jamlashi kerak.

Ekspert o'qitish tizimlarida bu qoidalari ushbu soha mutaxassislar bilan o'quvchilar muloqotining yuqori sifatda imitatsiya qilishga imkon beruvchi aniq dasturiy ta'minotiga bog'liq. Biroq adaptive o'qitish tizimlari aniq dasturiy ta'minotga mo'ljallangan bo'lmasligi mumkin, chunki o'qitish modelida ko'rsatilgan qoidalari boshqacha bo'lishi kerak. Birinchi navbatda, bu qoidalarga muvofiq tizim bilan ishlash natijalari bo'yicha o'qitish modeli o'z o'zgarishlarini namoyish etishi kerak. Bu o'qituvchilarga mazkur modellarni shakillantirishni boshqarishga, shuningdek, dasturlashni algoritmik sozlanishlarsiz amalga oshirishga imkon beradi.

**O'quv materiallarini o'zlashtirish modeli.** O'quv materiallarini o'zlashtirish modeli mavzuning qanday izchillikda o'rgatish va ular orasida mantiqiy bog'liqlikni aks ettiradi. O'quv kursini loyixalashning boshlang'ich bosqichlarida o'quv materialini o'rganishni rejalashtirish uchun alohida o'quv elementlari ishlab chiqiladi. Model tarkibi- o'quv elementlarining mantiqiy bog'liqligi va matritsa tartibli munosabatlarga, o'quv elementlarini o'rganish izchilligiga o'quv elementlari mantiqiy aloqasi chizmasiga asoslangan. Mazkur model quyidagi to'rt bosqichdan iborat:

- o'quv elementlarining matritsa tartibli munosabatini shakillantirish;
- o'quv elementlari ro'yxati ko'rinishida o'quv materiallarini o'rganish ketma-ketligini tizim va matritsa tortibli munosabata ishlab chiqish;
- o'quv elementlarini mantiqiy matritsali bog'liqligini shakllantirish;
- o'quv elementlarini mantiqiy bog'liqligi chizmasini tuzish.

**Pedagogik testlash modeli.** Pedagogik testlash modeli o'ganuvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini bahlashda qo'llaniladi. Bu sohada kop tarqalgan modellar quydagilardan iborat:

- klassik;
- murakkab vazifali klassik model;
- murakkabligi ortib boruvchi model;
- o'zlashtirish darajalari boyicha vazifalarni ajratish modeli;
- vazifalarga jovob berish vaqtini xisblash modeli;
- moslanuvchan model;
- ssinariy boyicha mode.

**Aniq bo'limgan matematik pedagogic testlash modeli.** Ushbu model boshqa

ixtiyoriy pedagogic testlashning o'sishida bo'ladi, shunki ularda aniq xarakterli test vazifalari va javoblari bilan birga, aniq bo'lмаган о'xshashliklardan foydalaniladi. Bunda quyidagilar xizmat qilishi mumkin:

- murakkab vazifalar ("oson", "o'rtacha", "yuqori o'rta", "qiyin");
- javoblar to'g'riliği ("to'g'ri", "qisman to'g'ri", "ko'proq notog'ri", "noto'g'ri");
- javoblar vaqtı ("kichik", "o'rtacha", "katta", "juda katta");

-yakuniy baholashning to'g'ri javoblari foizlarda ("kichik", "o'rtacha", "katta", "juda katta") va boshqalar. Aniq bo'lмаган xususiyatlar kirishi o'qituvchilarga testlarni ishlab chiqishda yordam berishi mumkin. Masalan, o'qituvchi vazifaning murakkab yoki osonligini yetarlicha tezlikda ajratishi mumkin, biroq 100 balli shkala yoki aniq baholash bo'yicha ikki murakkab vazifaning qiyinligi jihatidan farqini aytish yetarlicha oson bo'lmaydi.

**O'zlashtirish darajasi bo'yicha vazifalar bo'linishi bilan pedagogic testlash modeli.** Test vazifalarini o'quv materiallarini o'zlashtirishning 5 darajasining har biriga tuziladi. Boshida testlash 0 darajadan keyin 1,2 va boshqalari bo'yicha vazifalardan foydalanib o'tkaziladi.

**Vazifaga javob berish vaqtı bilan pedagogic testlash modeli.** Testlash natijalari har bir vazifaga javob berish vaqtini hisoblab ajratiladi. Bu vazifalarga mustaqil javob bermaganlik imkoniyatini hisobga olish uchun amalga oshirilgan:

O'rganuvchi javoblarni qo'llanma yoki boshqa manbalardan topadi va barcha vazifaga to'g'ri javob beradi, lekin eng past ball to'playdi. Boshqa tomondan, agar u boshqa chetki manbalardan foydalanmasa ham, biroq uzoq o'ylab javob berishi unung nazariy bilimlarni yaxshi o'zlashtirmaganligidan dalolat beradi, natijada hamma javob to'g'ri bo'lsa ham, past baholanadi. Vaqt hisobi modeli vazifalar murakkabligi modeli bilan birgalikdagiasoslanib, testlash natijalarining ishonchlilagini oshiradi.

### Adabiyotlar

- 1.X.X. Muratov "Elektron ta'lim resurslari va multimediali electron o'qitish vositalari orqali ta'lim muhitining rivojlanishi"
- 2.M.M.Axmatovna, SH.N.Nasirova "Effektivnost vozmojnostey ispolzovaniya elektronnix resursov v obrazovanii"
- 3.M.Kamoliddinov,B.Vaxobjonov "Innovatsion pedagogic texnologiya asoslari, savollar,javoblar", Toshkent-2010.
- 4.M.Klark "Texnologiya obrazovaniya ili pedagogicheskaya texnologiya" jurnal "Perspektivi"-1983.
- 5.K.Ishmatov "Ilg'or pedagogik texnologiyalar", Namangan-2003.